

## AYOLLAR MIGRATSIYASI NATIJASIDA KELIB CHIQUADIGAN MUAMMOLAR VA ULARNI YECHIMIGA OID DAVLAT SIYOSATI.

*Komilova Shaxlo Boxodirjonovna*

*O'zbekiston Milliy Universiteti*

*Tarix fakulteti Etnografiya, etnologiya va*

*antropologiya yo'nalishi 2-kurs*

*magistranti*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O'zbekistonda ayollar migratsiyasi jarayonlari va buning natijasida kelib chiqadigan muammolar Farg'ona viloyati Dang'ara tumani ayollari misolida tahliliy bayon qilinadi. Maqolada ayollar migratsiyasi muammolari va ularning yechimiga oid davlat siyosati yo'nalishlariga urg'u berildi.

**Kalit so'zlar:** globallashuv, ayollar mehnat migratsiyasi, ijtimoiy hayot, Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi, o'zbek mentaliteti, davlat siyosati.

**KIRISH:** Globallashuv ijtimoiy hayotning barcha sohalariga, jumladan, iqtisodiyot, siyosat, ijtimoiy soha, madaniyat, ekologiya, xavfsizlik va boshqa jihatlariga ham ta'sir ko'rsatadi. Yangi ming yillikda zamonaviy hodisa sifatida ayollar migratsiyasi butun dunyoda juda faol tarqalmoqda. Ayollar migratsiyasi bu ayollarning ish topish imkoniyati mavjud bo'lgan mintaqa va mamlakatga ko'chish jarayonidir. Ayollar mehnat migratsiyasi global migratsiyaning bir qismiga aylandi. Kam rivojlangan mamlakatlar va mintaqalardan kelgan ayollar birinchi navbatda tirikchilik izlab rivojlangan mintaqalar va davlatlarga bormoqdalar.

**ASOSIY QISM:** O'zbek ayollari orasida ishlash maqsadida bo'lsin yoki boshqa sabablar bilan chetga chiqish, ya'ni ayollar migratsiyasi mutlaqo begona holat hisoblanadi. Bunday holatlar oldin kuzatilmas, ayollar begona ko'zlardan saqlanar edi. O'zbek oilalarida erkak kishining chetda migrant bo'lib ishlab pul yuborib ro'zg'or tebratishiga ko'pchilik o'rgangan. Ayniqsa qishloq hududlarda yigitlar maktabni tamomlab biror horijiy davlatga ketib ishlashi odatiy holga aylangan. Hozirgi globallashuv sharoitida ayollar ham erkaklar singari tirikchilik kuyida chetga ishlash uchun ketishmoqda. Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi taqdim etgan ma'lumotlarga ko'ra, ayni paytda 2,3 mln o'zbekistonlik horijda mehnat qilmoqda. Shulardan 568 492 nafari ayollardir.<sup>1</sup> Bu borada ayniqsa vodiylar viloyatlari yetakchilik qilmoqda. Hozirda Andijon viloyatidan 48 ming, Namangan viloyatidan 11 ming, Farg'ona viloyatidan 30 ming ayollar migratsiyada. Sabablar esa aniqki, iqtisodiy asoslarga ega. Iqtisodiy muammolar oilalardagi muhitga ta'sir ko'rsatmay qolmayapti. Farg'ona viloyati Dang'ara tumanining bir qator qishloqlarida kuzatuvlar olib borganimizda shu narsa

<sup>1</sup> Migration.uz. Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi.

aniq bo'ldiki, sabablar bir-biriga juda yaqin. Intervyularimiz natijalariga ko'ra ayollar avvalo oiladagi yetishmovchilik, farzandlar uchun munosib sharoyit yaratish, doimiy ish o'rinlarining yo'qligi, qarzdorlik, oilaviy kelishmovchiliklar, o'z uy-joyining yo'qligi, qarindoshlarining davolanishi uchun mablag'ga muhtojlik, ba'zi holatlarda turmush o'rtog'ining ro'zg'or yukini ayoli zimmasiga tashlab qo'yganligi sabab ayollar chetga ishlashga ketmoqdalar.

Ayollarning mehnat migratsiyasi bir necha shakllarda mavjud: qonuniy, noqonuniy va yarim qonuniy.<sup>2</sup>

Huquqiy shakl ayollar mehnat migratsiyasining eng yaxshi, ammo eng kam sonli shakli bo'lib, ayollar ish beruvchilar bilan mehnat shartnomalarini imzolash orqali mezbon mamlakatlarda to'liq xavfsiz holda qonuniy qolishlari mumkin

Noqonuniy shakl - bu ayollar mehnat migratsiyasining eng ko'p va xavfli shakllaridan biri bo'lib, ayollar noqonuniy yoki qisqa muddatli turistik vizalar bilan mezbon davlatlar hududiga kirganda va aniqrog'i ular faqat Rossiyaning noqonuniy yoki yarim qonuniy sektorlarida ishlashlari mumkin. Iqtisodiyot, mezbon mamlakatlardagi noqonuniy mavqei tufayli ular ayniqsa zaif va ko'pincha haqorat, zo'ravonlik, ta'qib, turli xil kamsitishlarga duchor bo'lishadi.

Yarim huquqiy shakl - bu ayollar mehnat migratsiyasining ikkita eng ko'p va xavfli shakllaridan biri bo'lib, ayollarga, hatto o'z mamlakatlarini tark etishdan oldin, qonuniy ishlash va qabul qiluvchi mamlakatlarda rasmiy ro'yxatdan o'tish va da qilinishi mumkin, lekin chegarani kesib o'tishda, ularning pasportlari olib qo'yiladi va ular mehnat yoki jinsiy qullikka tushib, amalda odam savdosi qurboniga aylanishadi.<sup>3</sup>

Ayollar migratsiyasi kengayishda davom etmoqda, chunki:

birinchidan, dunyoning ko'pgina mamlakatlarida aholi qarib, qariyalar ko'proq g'amxo'rlikka muhtoj;

ikkinchidan, ayrim mamlakatlarda aholi farovonligi oshib bormoqda, uy xo'jaliklari uy bekasi, enaga, oshpaz va hokazolarni yollash imkoniyatiga ega.<sup>4</sup>

Dunyodagi aksariyat mamlakatlar iqtisodiyotining ayrim sohasida va mintaqalarida alohida kasblar va ish turlarida ishchi kuchining etishmasligi horijiy ishchi kuchining bandligiga imkon bermoqda. Birinchi navbatda kam haq to'lanadigan va malaka talab qilmaydigan sohalarda, olis ish joylarida shunday holat kuzatilmoqda.

Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yildan keyin 272 million xalqaro migrant ro'yxatga olingan bo'lsa, shuning 47,9 foizini (130 million) ayollar tashkil

<sup>2</sup> Пескова Д.Р. Абреу Бастос О.П. Причины, риски и последствия распространения женской трудовой миграции: исследование на региональном уровне. Fundamental Research №11, 2014 стр. 596 – 600

<sup>3</sup> Пескова Д.Р. Абреу Бастос О.П. Причины, риски и последствия распространения женской трудовой миграции: исследование на региональном уровне. Fundamental Research №11, 2014 стр. 596 – 600

<sup>4</sup> F. Parmonov. Xalqaro migratsion jarayonlar. Jamiyat va boshqaruv. 2009-yil 4-son, 33

etgan. Markaziy va Janubiy Osiyo davlatlaridan muhojirlarning 49,4 foizi ayollardir<sup>5</sup>. Ayollar orasida mehnat migrantlarining ko'payishi yoki kamayishi mamlakatdagi iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish bilan bog'liq bo'ladi. Kam daromadli davlatlardan tobora ko'proq ayollar oila boqish, pul ishlab topish uchun chetga ishlash uchun chiqadi. Hozirda O'zbekiston viloyatlarida migratsiya jarayonlari ayollar uchun boshqa davlatda ish topish imkoniyati hisoblanadi.<sup>6</sup>

Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi bergan ma'lumotlarga ko'ra, 2022-yil statistik ma'lumotlar bo'yicha chet elda vaqtinchalik mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston fuqarolari soni o'rtacha 2,4 million kishini tashkil qilmoqda. Shundan 568,5 ming nafari ayollar (24,1%), 827,1ming (35,1%) yoshlardir.<sup>7</sup>

Indiana Universiteti (AQSH) Antropologiya fakulteti doktoranti, Inson huquqlari markazi (Dushanbe) xodimi Malika Bahovadinova migratsiyaning feminizatsiyasi mavzusini o'rganib chiqdi va migratsiya jarayonida ayollar duch keladigan qiyinchiliklar va imkoniyatlarni tahlil qilgan. Uning fikricha migratsiya statistikasi manbasidan qat'iy nazar taxminan bo'ladi. Songgi ma'lumotlarga qaralsa Tojikistondan Rossiyaga migratsiya oqimida ayollar ulushi taxminan 17 foizni tashkil qiladi. Bu ko'rsatkich migratsiyadagi ayollar ulushi allaqachon sezilarli oshganini bildiradi va u yana ortib borishi mumkin. Bu ko'rsatkich qo'shni davlatlar Qirg'izistonda 39 foizni, O'zbekistonda esa 19 foizdan ortiqni tashkil etadi.<sup>8</sup>

Shuni alohida ta'kidlash kerakki Malika Bahovadinova fikricha ayollar o'nlab yillar davomida Rossiyaga mehnat oqimining bir qismi bo'lib kelgan. Sovet davrida ko'plab oliy ma'lumotli ayollar asosan Moskvadagi restoran va kafelarda idish yuvuvchi va farrosh bo'lib ishlagan. Ko'pchiliklari asosan savdo-sotiq bilan shug'ullanishgan.

Sovet Ittifoqi parchalangandan keyin MDH dan kelayotgan ishchi kuchi ham jinsi bo'yicha farqlanadi. Malika Bahovadinova tadqiqotlaridan shu ma'lum bo'ladiki, 1990-yillar o'rtalaridan ayollar Rossiya Rederatsiyasiga ishlash uchun sayohat qilishni boshlagan. Ular doimiy migratsiya oqimining bir qismi bo'lib kelgan va o'z daromadlari bilan xuddi erkaklar kabi o'z oilasi va davlatining iqtisodiy farovonligiga moliyaviy hissa qo'shgan. Erlari bilan birga ketgan ayollar xam eng ko'p savdo sohasida faoliyat olib bordan.

Migratsiyaga o'zi ketishga qaror qilgan ayollar asosan bola parvarishi uchun ketishadi. Bolalarni boqish, yaxshi ta'lim berish, ba'zilar bolalarini chiroyli kiyintirish va boshqa sabablar bilan chetga ketib daromad topishni istaydilar. Boshqa ayollar esa

<sup>5</sup> Маджидова, Д.А. Оилалар мустахкамлигини таъминлашда миграция таъсирида юзага келувчи хатарларни олдини олишнинг муҳим йўналишлари. UIF-2022: 8.2 SCIENCE AND INNOVATION. ISSN: 2181-3337 INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL. №04

<sup>6</sup> @Fayllar.org. Internet materiallari 11.02.2022

<sup>7</sup> Migration.uz. Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi.

<sup>8</sup> R.Murtazayeva. Millatlararo munosabatlar va tolerantlik. Darslik. Toshkent "MUMTOZ SO'Z" 2019 C-282

farzandlari otasi bilan ulg'ayib, yaxshi sharoitda yashashlari va yaxshi maktablarda o'qishlari uchun migratsiya qilishdan xursand bo'lishadi. Ba'zi ayollar farzandlarini yaqin qarindoshlari qaramog'ida qoldirib, erlari bilan birga ishlashga borishni tanlashadi. Chunki bolalar bilan borib ishlash bir qator muammolarni keltirib chiqaradi.

Erlari uyda farzandlari bilan qolib ayollari ishlash uchun Rossiyaga kegan holatlar ham talaygina. Bunday holatlar atrofdagilar tomonidan qoralanadi. Kuzatuvlarimiz shuni ko'rsatadiki, bunday ayollar asosan borib qarindoshlari yoki tanish-bilishlarga qo'shilishadi. Garchi ketishni istamasalarda oiladagi iqtisodiy ahvolning og'irligi, turmush o'rtog'ining tayinli ishi bo'lmaganligi sabab ular ketishga majbur bo'lishadi. Bunday ayollar oiladagi yagona boquvchi hisoblanadi. Lekin bu ayollarni atrof-muhitda qoralash kayfiyati mavjud.

Migratsiyadagi ayollar erkaklardan ko'ra ko'proq muammolarga uchraydi. Qiyinchiliklar birinchi navbatda ularning faoliyatlari bilan bog'liq. Ayollar asosan xizmat ko'rsatish sohalarida band bo'lishadi va shu faoliyat bilan bog'liq muammolarga duch kelishadi. Mehnat huquqlari nuqtai-nazaridan ayollar ko'pincha xususiy uy xo'jaliklarida ishlaydigan "ko'rinmas ishchi kuchi"ga aylanadi. Bu zo'ravonlik va bunday ishchi kuchini ekspluatatsiyasini keltirib chiqaradi. Dunyoning ko'plab mintaqalarida bo'lgani kabi, Markaziy Osiyo davlatlaridan borgan ko'plab migrantlar ko'plab muammolarga duch kelishadi. Ular juda qiyin sharoitlarda ishlashga majbur bo'ladi. Dam olish va harakat erkinligidan mahrum bo'lishadi. Ko'p holatlarda pasportlari olib qo'yiladi. Ish xaqi ham past darajada yoki kechikib to'lanadi. Tadqiqotimiz davomida ko'plab shunday muammolarga duchor bo'lgan ayollar bilan suhbatlashdik. Ular aksariyat holatlarda deportatsiya bo'lishdan qo'rqib har xil kamsitilishlarga sabr-toqat bilan chidaydilar. Chunki ayrim oilalarning asosiy daromadi mana shu migrant ayollar yuborayotgan mablag'lar hisoblanadi. Ya'ni ular oiladagi yagona boquvchi hisoblanadi. Odatda o'zbek oilalarida erkaklar asosan chetga chiqib ishlab pul ishlab topib yuborib ro'zg'or tebratishiga ko'pchilik o'rganib qolgan. Ayniqsa Dang'ara tumani qishloqlarida yigitlar maktabni tugatib, Rossiya yoki biror boshqa xorijiy davlatga ketib ishlashi odatiy hol hisoblanadi. Dala tadqiqotlarimiz davomida Rossiyaga borib ishlab kelgan ayollarga "Nima uchun boshqa davlatga borib ishlashni ma'qul ko'rdingiz?" degan savollar bilan murojaat qildik. Respondentimiz 38 yoshli ayol asli kasbi o'qituvchilik ekani oilaviy iqtisodiy qiyinchiliklar sabab turmush o'rtog'i bilan Rossiyaga borib ishlashga majbur bo'lganini gapirib berdi. Ikki nafar farzandini qaynonasi va onasiga qoldirib ketgan. Gap shundaki, oila katta qarzga botib qolgan va er-xotin pul topib shu muammoni hal etish uchun Rossiyaga ishlashga borgan.<sup>9</sup> Bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Demak faqat ishsiz va biror

<sup>9</sup> Dala yozuvlari: Farg'ona viloyati, Dang'ara tumani Bog'ish qishlog'i, Murabbiylar mahallasi. 16.01.2022.

tayinli kasbi bo'lmagan ayollar emas, balki oliy ma'lumotga ega bo'lgan ayollar ham iqtisodiy qiyinchiliklar sabab chetga chiqib ishlashga majbur bo'lishmoqda.

O'zbekiston fuqarolarining xorijda kasbiy faoliyat ko'rsatish huquqi O'zbekiston Respublikasining aholi bandligi to'g'risidagi Qonunida (1992-yil fevral) e'lon qilingan va mustahkamlangan. Mehnatning migratsiya jarayonlari sohasida tashkiliy-huquqiy negiz yaratilishi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 14 iyulda "Ishchi kuchlarini chetdan keltirish va chetga chiqarish masalalarini boshqarish to'g'risidagi" 353-sonli Qaroridan boshlangan<sup>10</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 12-noyabrda "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining chet ellardagi mehnat faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" Qaroriga muvofiq mehnat migratsiyasi jarayonlarini tartibga solish, O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining chet elda va chet el fuqarolarining O'zbekiston Respublikasida ish bilan ta'minlash masalalarini hal etish Tashqi mehnat migratsiyasi masalalari Agentligi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining Mehnat va ijtimoiy muhofaza vazirligi qoshidagi fuqarolarni chet elda ishga joylashtirish regional byurosi zimmasiga yuklatilgan. Tadqiqotlarimiz davomida mana shu agentlikning Farg'ona viloyati bo'limi tomonidan aynan Dahg'ara tumanida tashkil etilgan tadbirida ishtirok etdik. Tadbir maqsadi chetga chiqib ishlash istagida bo'lgan fuqarolarga maslahatlar berish va boradigan dablatlarida qonuniy ish taklif qilishdan iborat bo'ldi. E'tiborli jihati tadbir qatnashuvchilarining yarmidan ko'pini turli yoshdagi ayollar tashkil etdi. Ko'pchiliklari bilan suhbatlashganimizda ular 10, 11 yildan buyon Rossiya Federatsiyasida ishlab yurgan ayollar ekanligiga guvoh bo'ldik. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 12 sentyabrdagi 725-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi huzuridagi Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi to'g'risida"gi Nizomga ko'ra, tashqi mehnat migratsiyasini kompleks tahlil qilish, shu asosda normativ-huquqiy bazani takomillashtirishga doir takliflar ishlab chiqish, mehnat migratsiyasidan qaytgan fuqarolarni ishga joylashtirishda ko'maklashish agentlikning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Qamrov zonasini kengaytirish maqsadida ular Toshkent, Buxoro, Nukus, Farg'ona, Qarshi shaharlarida faoliyat ko'rsatadi. Bizning davlatimiz fuqarolari qonunchilikka binoan, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofazalash vazirligi orqali hukumatlararo, idoralararo shartnoma va bitimlar asosida mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun xorijga chiqish huquqiga ega. Bundan tashqari fuqarolar agentlik beradigan ruxsatnomalar bo'yicha xususiy mehnat shartnomalariga asoslanib mehnat qilish uchun xorijga chiqish huquqiga ham egadirlar. Misol uchun O'zbekiston Respublikasining Mehnat va aholini ijtimoiy muhofazalash vazirligi bilan Koreya

<sup>10</sup> R.Murtazayeva. Millatlararo munosabatlar va tolerantlik. Darslik. Toshkent "MUMTOZ SO'Z" 2019 C-282

Respublikasining mehnat vazirligi o'rtasida hamfikrlik to'g'risida Memorandum imzolangan. Bu hujjat bo'yicha ishchilar Koreyaga bandlikni hal qilish tizimi bo'yicha yoki, boshqacha qilib aytganda, erkin yollanib jo'nashi haqida kelishib olingan. Koreyaga ketishdan oldin O'zbekiston fuqarolari tayyorlov va o'quv markazlarida ta'lim oladilar.

O'zbekiston Respublikasining "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi (2016 yil 22 sentyabr), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 martdagi "Vaqtinchalik mehnat faoliyatini olib borish uchun Respublika hududidan transport orqali chet elga jo'nab ketish vaqtida O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining xavfsizligini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi

PQ-3584-son, 2018-yil 5 iyuldagi "O'zbekiston Respublikasining tashqi mehnat migratsiya tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3839-son, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 12 sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini xorijda uyushgan holda ishga joylashtirish tizimini yanada takomillashtirish va tubdan qayta ko'rib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 725-son qarori, "Aholi bandligi to'g'risida"gi (2020 yil 20 oktyabr), "Xususiy bandlik agentliklari to'g'risida"gi Qarorlari 2020 yil 15 sentyabrdagi "Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4829-son qarori migratsiya jarayonlarini tartibga solishga xizmat qiladi<sup>11</sup>. Aynan shu qaror asosida migratsiyadan kelgan fuqarolarni bandligini ta'minlash, kasbiy malakasini oshirish va tadbirkorlik tashabbuslari rag'batlantiriladi. Shuningdek, ushbu qarorga ko'ra, 2021-yil 1 yanvardan boshlab "Ijtimoiy himoya yagona reestri" axborot tizimi orqali kam ta'minlangan oila a'zosi sifatida e'tirof etilgan va xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirib, qaytib kelgan shaxslarga bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan yakka tartibdagi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tgan yoki kichik korxonalar va mikrofirmalarni davlat ro'yxatidan o'tkazgan vaqtdan boshlab birinchi uch oy davomida ijaraga olingan bino va inshootlarning ijara haqini to'lash, tadbirkorlik asoslari va moliyaviy savodxonlikka o'qish, kredit olishda ta'minot sifatida taqdim etiladigan sug'urta polisi bo'yicha to'lovlarni amalga oshirish xarajatlarni qoplash uchun bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravarigacha miqdorida subsidiya to'lash belgilangan.

Ushbu qarorlar samarasi ularoq, O'zbekiston Respublikasiga qaytgan mehnat migrantlari soni 2020 yilda 508 688 nafarni tashkil etgan bo'lsa, shundan 126 422 nafarini ayollar, 2021 yil birinchi choragida ushbu ko'rsatkich 32 888 nafarni shundan 9 279 nafarini ayollarni tashkil etmoqda. 2020 yilda O'zbekiston Respublikasiga

<sup>11</sup> [www.scientificprogress.uz](http://www.scientificprogress.uz) B.A.Xonto'rayev, N.I. Asminkina, M.Yu. Karayev. Migratsiya jarayonlarining hududiy xususiyatlari. "SCIENTIFIK PROGRESS" Scientific Journal ISSN: 2181-1601

qaytgan mehnat migrantlarini 337 910 nafari ishga joylashtirilgan bo'lib, shundan 65 103 nafarini ayollar tashkil etadi. 2021 yil birinchi choragida ushbu ko'rsatkich 17 587 nafarni shundan 3 655 nafarini ayollar tashkil etmoqda. Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi tomonidan mehnat migratsiyasidan qaytgan fuqarolarni tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi bilan hamkorlikda "Tadbirkor mirant" loyihasi doirasida xorijdan qaytgan fuqarolar uchun "Tadbirkorlik asoslari va biznes yurituvini tashkil etish"ga oid qisqa (5 kun, 48 soatlik dastur asosida) muddatli o'quv kurslari tashkil etilmoqda. Jumladan, ushbu dastur doirasida shu kunga qadar mehnat migratsiyasidan qaytgan 616 nafar (shundan 127 nafarini xotin-qizlar) fuqarolar O'zbekiston Savdo-sanoat palatasining hududiy boshqarmalari yordamida tadbirkorlik kurslariga o'qitildi va sertifikatlar berildi. Bu loyiha asosida bir qator ijobiy ishlar amalga oshirildi. Birinchi chorak yakuni bo'yicha 500 nafar fuqaro shu loyiha asosida o'qitilgan. Shulardan 282 nafari ayollardir. Asosan bu loyihada xizmat ko'rsatish, chorvachilik, ishlab chiqarish yo'nalishlari bo'yicha o'qitiladi. Masalan Dang'ara tumanida shunday kurslarda o'qigan bir nechta ayollar bilan gaplashdik. 40 yoshli axborotchimiz tikuvchilik kursida o'qigan va subsidiya mablag'i hisobidan tikuv mashinasi olib berilgan. 2021-yil yakuniga ko'ra 2,5 ming ayollar "Tadbirkor migrant" loyihasi doirasida o'qitilgan. 2020-yildan boshlab Tashqi mehnat migratsiyasi masalalari agentligi (TMMMA) tomonidan har bir viloyat va tumanlarda har oyning 15-sanasigacha IIVning uzoq muddat xorijda bo'lgan va qaytib kelganlar bazasidan xorijda ishlab qaytgan mehnat migrantlari ro'yxati olib tahlil qilinadi va "Xonadonbay so'rovnomasi" o'tkaziladi. So'rovnomasi natijasida fuqarolar ehtiyojlari o'rganiladi va ehtiyojga qarab ish o'rni yoki tadbirkorlik uchun subsidiya taklif qilinadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mamlakatimiz ijtimoiy hayotida ayollar rolini oshirish va gender tengligini ta'minlash ayollar mehnat migratsiyasining ijtimoiy oqibatlarini bartaraf etishning garovi hisoblanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Абдуразакова Н. Г Женская трудовая миграция в контексте глобализации. Автореферат Казань – 2008
2. Пармонов Ф. Халқаро миграцион жараёнлар. Жамият ва бошқарув. 2009 йил 4-сон, 33Б.
3. Пескова Д.Р. Абреу Бастос О.П. Причины, риски и последствия распространения женской трудовой миграции: исследование на региональном уровне. Fundamental Research №11, 2014 стр. 596 – 600
4. Abdurahmonova G.Q. Muxitdinov E.M Aholini ish bilan bandligini oshirishda tashqi mehnat migratsiyasining ahamiyati. "Iqtisodiyot va innovatsiyon texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. Iyul-avgust 4/ 2018 yil

5. Муртазаева.Р.Ҳ.Глобаллашув шароитида аҳоли миграциясининг феминизациялашуви. “Хотин-қизлар ижтимоий-сиёсий фаоллигини ошириш мамлакатимизда амалга оширилаётган ислохотларнинг муҳим омили” мавзусида Республика илмий-амалий анжумани мақолалар тўплами 26 февраль 2019 йил

6. R.Murtazayeva. Millatlararo munosabatlar va tolerantlik.Darslik.Toshkent “MUMTOZ SO’Z” 2019 C-282

7. Д. В. Полетаев. Женщины мигранты из зарубежных стран в России. Москва

8. Маджидова.Д.А. Оилалар мустақамлигини таъминлашда миграция таъсирида юзага келувчи хатарларни олдини олишнинг муҳим йўналишлари.UIF-2022: 8.2 SCIENCE AND INNOVATION. ISSN: 2181-3337 INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL.№04

9. [www.scientificprogress.uz](http://www.scientificprogress.uz) В.А.Хонто’rayev,N.I.Asminkina,M.Yu,Karayev. Migratsiya jarayonlarining hududiy xususiyatlari.”SCIENTIFIK PROGRESS” Scientific Journal ISSN: 2181-1601

10. Migration.uz. Tashqi mehnat migratsiyasi agentligi

11. @Fayllar.org. Internet materiallari 11.02.2022

12. Dala yozuvlari:Farg’ona viloyati,Dang’ara tumani Bog’ish qishlog’i,Murabbiylar mahallasi.16.01.2022.